

ISSN 2181-3337



MATE
HUNGARIAN UNIVERSITY OF
AGRICULTURE AND LIFE SCIENCES



International scientific journal **Science and Innovation**

SPECIAL ISSUE

**ACTUAL ISSUES OF AGRICULTURAL DEVELOPMENT:
PROBLEMS AND SOLUTIONS**

www.scientists.uz



ISSN: 2181-3337
SCIENTISTS.UZ

International Scientific Journal SCIENCE AND INNOVATION

Special Issue

**“ACTUAL ISSUES OF AGRICULTURAL DEVELOPMENT:
PROBLEMS AND SOLUTIONS”**

June 2023

Part 1

This issue was published based on the materials of the international scientific-practical conference "Actual issues of agricultural development: problems and solutions" held on June 6, 2023 in cooperation with Fergana State University and the Hungarian University of Agriculture and Life Sciences.

Tashkent 2023

O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIK VA UZUMCHILIK SOHASIDAGI YUTUQLAR

Hasanova Nishona Normurotovna

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8001921>

Annotatsiya. Ushbu maqolada dehqonchilikning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan bog'dorchilik va uzumchilik tarixi, uzumchilik sohasida bugungi kundagi islohotlar, O'zbekistonning uzum eksporti va jahonda uzumchilik sohasidagi o'rni bayon etilgan.

Kalit so'zlar: bog'dorchilik, uzumchilik, tok, issiqxona, vinochilik, eksport daromadi.

Mamlakatimizda uzum qadim zamonlardan beri yetishtirib kelinadi. Uni mavjudligi eramizdan oldingi IV asrlarda yozma adabiyotlarda mavjudligi bilan ajralib turadi. Uzumchilik qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan bo'lib, aholining oziq-ovqatga va sanoatni esa xom-ashyoga bo'lgan talabini qondiradi. O'zbekistonning tuproq va iqlim sharoiti bu ekin uchun nisbatan qulay bo'lgani uchun u mamlakatimizning barcha tuproq va iqlim sharoitlarida o'stiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev tomonidan "Uzumchilik bu – xalqimizning asrlar davomidagi milliy dehqonchilik madaniyati, qadriyati, g'ururi va daromad manbai hisoblanadi. Uzum xalqimizning turmush tarzi va urf-odatlar bilan bevosita bog'lanib ketgan" [1] deb ta'kidlanishi ham chuqur ma'no yotadi.

Tok qimmatbaho ekin hisoblanadi. Uzum mevasi tarkibida 15-30% hatto so'ltilganda 40-50%gacha shakar, organik kislotalar, pektin, o'simlik yelimi, bir qancha fermentlar, A, V, V, S vitaminlar va tuzlar bo'ladi. Bugungi kunda tokzorlarning umumiy maydoni 7 mln 546 ming gektarni, yalpi uzum hosili 62 mln tonnani tashkil etmoqda. Yetishtirilgan uzum hosilining asosiy qismi-83% vino tayyorlash, 12% istemol qilish va 5% qurutish (mayiz) uchun ishlatiladi. Uzumchilikning 4 asosiy yo'nalishi: xo'raki uzum yetishtirish, mayiz quritish, texnik maqsadlarda uzum yetishtirish (sharbatlar, konserva mahsulotlari tayyorlash), vinochilik (xom ashyo tayyorlash) sohalari mavjud [2, 33-b.].

Pishgan uzum sarxilligida yeyiladi. Undan mayiz, qiyom, shinni, sharbat, kompot tayyorlanadi. Sharbatidan vino va konyak olinadi. Uzum nafaqat ovqat, balki yurak-tomir, asab, oshqozon-ichak, kamqonlik sil, va boshqa bir qator kasalliklarni davolashda ishlatiladigan nodir meva hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo bo'yicha mayiz ishlab chiqarish hajmi 1,220 mln tonnani tashkil etmoqda [3, 174-175-b.]. Yalpi mayiz yetishtirish bo'yicha O'zbekiston jahonda yettinchi o'rinni egallab (32,893 ming tonna) kelmoqda va unda germiyonning ulushi 8-10 ming tonnani tashkil etmoqda.

Mamlakatimizda germiyon mayizini ishlab chiqarish hajmini oshirish tashqi bozorda raqobatbardosh bo'lgan mahsulot eksporti hajmini oshirishga imkon beradi. Uzum yetishtirish bo'yicha Xitoy dunyoda eng yetakchi davlat hisoblanadi. U yiligi 15 mln tonna uzum yetishtirib beradi. Mashhur uzum navi ixtirochisi Musamuhamedov Rizamat ota (1881-1979)-dunyoga mashhur o'zbek uzumchiligi mirishkoridir. Rizamat ota ikki marta Mehnat Qahramoni, davlat mukofotlari laureate, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining faxriy akademigi, Respublikada xizmat ko'rsatgan agranom va uzumchi unvonlariga sazovor bo'lgan. U XIX asr oxiri Toshkent viloyatidagi "Degress" uzumchilik xo'jaligida ish boshlagan [4, 14-b.].

Mashhur olimlar Strelsov va Shrederlar shogirdi bo'lgan. 1914-1922-yillarda Rizamat ota maxsus "Kensays" uzumchilik xo'jaligida bosh mutaxassis bo'lib ishlagan. 1950-yildan keyin

O'zbekiston qishloq xo'jaligi vazirligida uzumchilik yo'nalishida bosh agronom bo'lib ishlash davomida, uzumning yangi ekish usullari va bog' yaratish sxemalarini ishlab chiqqan. Ushbu inson boshchiligida Yevropa va Markaziy Osiyoda 3600 dan ortiq uzum bog'lari yaratilgan. Ota faoliyati davomida 10 dan ortiq uzum navlarini seleksiya qilgan. Valish va so'ritokda uzum o'stirgan birinchi bog'bon ham shu insondir.

O'zbekistonda uzumchilik va vinochilik katta salohiyatga ega va iqtisodning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mintaqamizda sifatli uzum yetishtirish va jahon eksportiga yo'naltirilgan qimmatbaho vino markalarini ishlab chiqarish uchun sharoit mavjud [5, 45-46-b.]. Belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun 2017-2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakat strategiyasiga asosan zamonaviy qishloq xo'jaligi texnologiyalari va tomchilatib sug'orishni amalga oshirish rejalashtirilgan, uning hisobiga uzum hosildorligini oshirish ko'zda tutilmoqda. 2021-yil birinchi choragida 87 ming gektardan ortiq yerni mevali bog'lar va tokzorlar egallagan.

Uzum O'zbekistondan yangi mevalarni eksport qilish reytingida eksport savdosidan tushgan pulning ham miqdori, ham summasi bo'yicha birinchi o'rinni egallaydi. 2017-yildan 2020-yilgacha mamlakatimiz 117 mingdan 141 ming tonnagacha yangi uzumni tashqi bozorlarga eksport qildi va 2020-yil oxirigacha eksport daromadi 133 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Joriy yilda O'zbekistonda fermer xo'jaliklari uzum yetishtirish uchun issiqxona texnologiyalarini muvafaqqiyatli joriy etishga kirishdi. Ushbu texnologiya Janubiy Koreyada keng qo'llaniladi [6, 322-b.]. Yopiq tuproqda uzum yetishtirish: salbiy ob-havo sharoitlari va zarakunandalardan himoya qilishdan tortib ancha erta muddatlarda hosil olish imkoniyatigacha ko'p afzalliklarga ega.

Uzumchilikda nav xilma-xilligi ortib bormoqda- texnik yo'nalishdagi yangi seleksiya navlari ko'paytirildi, ular orasida “Muskat orzu”, “Oltinday”, “Rodina” va boshqalar [7, 113-116-b.]. 2021-yil uzumning elita navlarini ekishni yo'lga qo'yish maqsadida Navoiy viloyati innovatsion boshqarmasi va Genomika va bioinformatika markazi bilan birgalikda Xatirchi tumaning Oltinsoy, Uchqora va Tasmachi mahallalarida uzumchilikni keng miqyosda tadqiq etish ishlari olib borildi. Samaqand viloyatida 2019-yilda uzum ishlab chiqarish salmog'i boshqa yillardagiga qaraganda yuqori bo'lgan. Uzum yetishtirish bo'yicha viloyatning Bulung'ur, Urgut, Ishtixon va Payariq tumanlari ig'orlikda oldingi o'rinlarda turishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda uzumchilik eng serdaromad sohalardan biri bo'lib, davlat tomonidan uzumchilik va bog'dorchilik sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.07.2021 yildagi PQ-5200-son.
2. “Agro – ilm” jurnali, 4-son, 2021 y., 30-37 b.
3. Temurov Sh. Uzumchilik. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2002. 174-175-b.
4. N.N.Hasanova Agriculture Changes During the Years of Independence in Uzbekistan //Eurasian Journal of History, Geography and Economics. – 2023. – T. 18. – C. 14-16.
5. “Qishloq xo'jalik” gazetasi, 7-son, 2021 y., 45-46 b.
6. N.N.Hasanova "Qishloq xo'jaligida donli ekinlar." Innovations in Technology and Science Education 2.8 (2023): 321-325.

7. Abdullayev, R.M., Mirzayev, M.M., Nabiyeu, U.Y., Abror (2013) Uzum yetishtirish va mayiz quritishning zamonaviy texnologiyasi. Toshkent: Sharq-Nashriyoti-Matbaa Aksiyadorlik Kompaniyasi, 113-116-b.

32	Iminchayev Raxmatjon Axmadovich, Ma'rufjonov Javohirbek G'ayratjon o'g'li, Meliqo'ziyev Azamjon Nomon o'g'li, JANUBIY FARG'ONADA SHAKLLANGAN OCH TUSLI BO'Z TUPROQLARDA O'SIB RIVOJLANAYOTGAN O'SIMLIKLAR KIMYOVIY TARKIBI VA OZIQLANISHI	140
33	In'omjonova O'g'loy, SHOLI HOSILDORLIGINI BELGILASHDA AGROTEKNIK CHORA TADBIRLARNI O'RNI	144
34	B.K. Boboyev, O.K. Usmonov, R.Q. Jamolov, ASALARI OILALARINI PAYVANDLANGAN ICHINKALARNI QABUL QILGANLIGINI TEKSHIRISH	146
35	Boboyev Bahromjon, R.Q. Jamolov, G.Q. Xayitboeva, ONA ASALARINI YETISHTIRISH UCHUN ISHLATILADIGAN MUM KOSACHALARNI TAYYORLASH	151
36	Камилов Муроджон Муқумжонович, ФАРФОНА ВОДИЙСИДА ТУРП ЕТИШТИРИШНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ	155
37	Khahramonjon Davronov, Nodirbek Teshaboyev, THE EFFECT OF FOLIAR APPLICATION OF MICRO ELEMENT FERTILIZERS ON COTTON FLOWERING DYNAMICS IN COTTON CULTIVATION	159
38	Fayziyeva Nazira Vaxromovna, LOVIYA SARIQ MAZAIK VIRUSI HAQIDA UMUMIY XARAKTERISTIKA	163
39	Ғозиев М.А., ЎСИМЛИКЛАРНИ ЗАРАРКУРАНДА ВА КАСАЛЛИКЛАРДАН ҲИМОЯ ҚИЛИШДА АЛМАШЛАБ ЭКИШНИНГ АҲАМИЯТИ	169
40	M.B.Soliyeva, N.N.No'monov, DASTA TURLARI VA ULARNI TAYYORLASH	171
41	M.M.Iminova, I.M. Mustafaev, M.B. To'raboev, QOVOQDOSHLAR (CUCURBITACEAE) OILASI VAKILLARIDA UCHRAYDIGAN ALTERNARIOZ KASALLIGI	174
42	Mahmudov Adham Azizovich, Yuldasheva Go'zal Qahhor qizi, SHAFTOLINING ISTIQBOLLI NAVLARI	179
43	Mamanazarova Maqsuda O'razaliyevna, SURXONDARYO VILOYATI (JANUBIY TUMANLAR MISOLIDA) POLIZ EKIQLARIDA KASALLIK KELTIRIB CHIQUARUVCHI PARAZIT NEMATODALARGA QARSHI PROFILAKTIK VA AGROTEKNIK KURASH CHORALARI	183
44	Mamatqulov Orifjon Odiljon o'g'li, G'OZA O'SIMLIGIDA CHILPISHNING AHAMIYATI	187
45	Maripova Rukiyaxon Zokirjon qizi, SHOLG'OM VA TURP EKIQLARI ZARARKUNANDALARI VA ENTOMOFAG TURLARI	190
46	Maxmudov Adxam Azizovich, Aliyev Xayrullo Xolmamatovich, TOQALASH TADBIRINING OLMA HOSILDORLIGI VA SIFAT KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI	195
47	Maxstaliyev Navro'zbek Solijon O'g'li, Izbosarov Matnazar Barrabekovich, "COLCHICUM BUNGE TURKUMI AYRIM TURLARINI BIOEKOLOGIYASI (COLCHICUM ROBUSTUM BUNGE (MERENDERA), COLCHICUM AUTUMNALE	198
48	Mirkozimjon Nishonov, METHODOLOGY FOR STUDYING CHEMICAL PROCESSES OCCURRING IN SOILS	202
49	Р.Мусаев, О.Н.Сулаймонов, Д.Абдуллаев, ҒЎЗАНИ СУҒОРИШ МЕЎЁРЛАРИ ВА ТЕЖАМКОР ТЕХНОЛОГИЯСИ	209
50	Musayeva Shoirazimovna, WAYS TO DEVELOP THE ORGANIZATION OF MARKETING RESEARCH IN AGRICULTURE	213
51	Muydinova Kamola Baxtiyor qizi, KIVI O'SIMLIGIDAN UY SHAROITIDA PARVARISHLASH	220
52	Muhammadiyeva G. , SOYA HOSILDORLIGINI BELGILASHDA AGROTEKNIK CHORA TADBIRLARNING O'RNI	223
53	Sotvoldiev Nozimjon Zikryaevich, Mukimov Zoxidjon Alijonovich, TOKZOR QATOR ORALARIGA ISHLOV BERISHNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI	225
54	Yaqubov Muzaffar, AYRIM TUR BALIQLARNING YUQUMSIZ KASALLIKLARI-GIPOVITAMINOZLAR	229
55	Дурдиев Нормат Хасанович, Маматқулова Лобар Ўроловна, СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИНИНГ ОЧ ТУСЛИ БЎЗ ТУПРОҚЛАРИ ҲАЖМ МАССАСИ ВА СУВ ЎТКАЗУВЧАНЛИГИНИНГ ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТАЪСИРИДА ЎЗГАРИШИ	232
56	Nabiyev Baxtiyor Nazirovich, Yuldashev Rahimjon Tojiddinovich, To'rayev Temur Ulug'bek o'g'li, BODRINGNI QAVOQQA PAYVANDLASH ORQALI UZOQ MUDDAT MO'L HOSIL OLISH INTENSIV TEXNLOGIYASINI AMALIYOTGA TADBIQ ETISH	236
57	Nodirbek Teshaboyev, Abdurakhman Sobirov, TOBACCO THRIPS IN COTTON AND PESTICIDES TO CONTROL THEM BIOLOGICAL EFFECTIVENESS	239
58	Hasanova Nishona Normurotovna, O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIK VA UZUMCHILIK SOHASIDAGI YUTUQLAR	242
59	Ortikov Vohidjon Bozorboy o'g'li, PIYOZ MAHSULOTINI YETISHTIRISHNING TEXNIKA VA TEXNOLOGIYASI	245
60	Qodirov Jaloliddin Jamoliddinovich, Idrisov Xusanjon Abdugabborovich, Olimova Zulxumor, Abduxalilova Muslimaxon, OLMANI IN VITRO SHAROITIDA O'STITIRISHDA OZUQA MUXITINI TA'SIRI	248
61	Jaloliddin Jamoliddinovich, Idrisov Xusanjon Abdugabborovich, Olimova Zulxumor, Abduxalilova Muslimaxon, ANORNI MIKROKLONAL KO'PAYTIRISH UCHUN OZUQA MUHITLARI	254
62	Qodirov Jaloliddin Jamoliddinovich, Erkaboyev Obbos Xayrullo o'g'li, Aminjonov Bunyodbek Bahromjon o'g'li, ANOR ZARARKUNANDALARIGA QARSHI INSEKTITSIDLARNI QO'LLASH VA ULARNI TA'SIRINI O'RGANISH Qodirov	259
63	Qodirov Jaloliddin Jamoliddinovich, To'lanvov Umriddin Orif o'g'li, KARTOSHKANI AXOLI TOMARQASI SHAROITIDA YETISHTIRISHDA VA SAQLASHDA ZARARKUNANDALAR ZARARINI KAMAYTIRISH	263
64	Qodirov Otabek Abdullaxayevich, Aliyeva Feruza Shavvazovna, To'xtasinov Asilbek Toxirjon o'g'li, Odashev Muhammadusmon Ulug'bek o'g'li, YANGI VA ISTIQBOLLI S-7303 G'OZA NAVIDAN YUQORI HOSIL YETISHTIRISH	266
65	B.K. Boboyev, R. Q. Jamolov, B. Abduvaliyev, THE PLACE WHERE THE MOTHER BEES ESCAPE (FERTILIZE) IN THE BEES	269
66	Raximov Mansurbek Mavlonjonovich, Otaboev Shoxruxbek Xafizullayevich, OLMA MEVAXO'RIGA QARSHI OLTINKO'Z ENTOMOFAGINING AHAMIYATI	273
67	Рахимов Мансурбек Мавлонжонович, Йўлдошев Хумоюнбек Нурмат ўғли, КАРТОШКА ЎСИМЛИГИДА КОЛОРАДО ҚЎНҒИЗИГА ҚАРШИ ЗАМОНАВИЙ ПРЕПАРАТЛАРНИ САМАРАДОРЛИГИ	276
68	Raximov Madaminjon Alijonovich, Nurmatova Moxira Madumarovna, QISHLOQ XO'JALIGI BIOTEXNOLOGIYASI	280
69	Rahmatov Abdulhamid Mahmudjon o'g'li, GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLAR	283
70	Rustamova Dildora Umarbek Qizi, Nizomova Maqsuda Usmonqulovna, DORIVOR ISSOP (HYSSOPUS OFFICINALIS) O'SIMLIGINI TARQALISHI VA ULARDAN FOYDALANISH, TABOBATDA ISHLATILISH	285